

**QADIMGI VA O'RTA DAVR INGLIZ TILIDA EKZISTENSIALLIK
MA'NOSINI IFODALASH USULLARI**

Yusupova Shoirra Batirovna
O'zMU xorijiy filologiya fakulteti
ingliz tilshunosligi kafedrasida professor v.b.,
filologiya fanlari nomzodi
yusupovash22@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi va o'rta davr ingliz tilidagi makon va mavjudlik ya'ni ekzistensiallik ma'nosini anglatish uchun qo'llaniladigan konstruksiyalarni ifodalash usullari yoritib beriladi. Ularning matnlarida qo'llanilishi qadimgi va o'rta davr badiiy adabiyotlardan olingan gaplarda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ekzistensial, konstruksiya, makon, semantika, fe'l, model, kontekst, matn, so'z, obyekt

Аннотация. В данной статье выделены способы выражения конструкций, используемых для выражения смысла пространства и существования, т.е. экзистенциальности, в древнем и средневековом английском языке. Их использование в текстах анализируется на примере предложения, взятого из античной и средневековой художественной литературы.

Ключавые слова: экзистенциал, конструкция, пространство, семантика, глагол, модел, контекст, текст, слова, объект

Annotation. This article lights up the ways in which constructions used to express space and existence, or existential in Old and Middle English. Their usage in texts is analyzed in sentences from Old and Middle English fictions.

Key words: existential, construction, place, semantics, verb, model, context, text, word, object

Kirish. Tildagi barcha kategoriyalar ham bir xil mavqega ega bo'lavermaydi. Ularning ayrimlari (masalan, hind-evropa tillaridagi fe'lda zamon, shaxs, son kabi grammatik-morfologik kategoriyalar) ma'lum morfologik mohiyatga ega bo'lib, ularning ma'nolari aniq va shuning uchun ularning haqiqiylikiga shubha tug'ilmaydi. Boshqa (masalan, leksik-semantik, semantik-leksik) kategoriyalar esa bir xil ifodaga ega emaslar va ularning til belgisini bildirishlarini isbotlash uchun qo'shimcha vositalarni jalb qilish zarur. Hozirgi zamon ingliz tilidagi jonli yoki jonsiz kategoriyalar bilan ham shu hodisa kuzatiladi. Bu kategoriya kishilik olmoshlari – it, she, he shakllari yordamida faqat bilvosita va etarlicha davomiylikka ega bo'lmagan ifoda planida taqdim etilmoqda. Bu o'rinda L.V.Sherba ilk bor e'tibor qaratgan holat kategoriyasini ko'rsatish mumkin: bog'lovchi bilan keladigan: *Sovuq – it is cold, dim – it is stuffy, yorug' – it is light, qorong'u – it is dark* shaxssiz-predikativ so'zlarning alohida qatori

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Ko'cha sovuq edi – It was cold in the street; Biz juda xursand edik – We were very happy va boshqalar). L.V.Sherbaning o'zi ham ushbu kategoriyaning mavjudligini "ishonarli" deb hisoblamagan [3; 156].

To be "bo'lmoq, mavjud bo'lmoq" fe'li qadimgi ingliz tilidagi mavjudlik tushunchasining asosiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi.

Qadimgi ingliz tilining barcha lug'atlari va grammatikasi qoidalarida ushbu fe'lning ikki vazifasi qayd qilinadi:

- 1) mustaqil fe'l sifatida;
- 2) ko'p tarkibli ot kesimda bog'lovchi vazifasini bajaruvchi sifatida.

Hozirgi zamon ingliz tilida kuzatiladigan majhul nisbat shakli va Continuous ning zamonli shakllarini hosil qilish uchun ko'makchi fe'l tarzida qo'llash qadimgi ingliz tili uchun xos emas. Hozirgi zamon tilshunosligida ushbu fe'l semantikasini ta'riflashda ikki xil fikr mavjud. Bir tomondan, ushbu fe'lning ma'noviy hajmini tobora to'liq va keng qamrovli tasvirlashga (tasviriy grammatik va katta izohli lug'atlarga xos) intilish kuzatilmoqda. Turli ma'nolar, tag ma'nolar, ma'nolar bo'yog'i va shu kabilarning miqdorini ajratish, batafsil ta'riflash o'ta muhim bo'lib, ba'zan ayrim mohiyatlar orasidagi farqlarning amaliy jihatdan sezib bo'lmasligi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan esa, ushbu fe'l ma'nolarining keskin cheklanishi kuzatiladi, asosan, bu maktab grammatikasida kuzatiladi. Ma'no mohiyati va kontekstual qo'llanish haqidagi alohida tasavvur tufayli bu fikrlarni bir necha jiddiy belgilangan yo'nalishlarga ajratish tilning o'ziga xos holatining farqini aniqlik va jiddiylik bilan tushuntirib bera oladi. Bu, ko'proq, tilni o'rganish jarayonida ushbu fe'l semantikasining ko'rgazmali tasavvuri ehtiyojlari bilan izohlanadi. Bunday yondashuvda ajratiladigan ma'no va vazifalar ba'zan shunday farqli bo'ladiki, bunda ularning bir so'zga taalluqli ekanligini isbotlashga to'g'ri keladi [1;203]

Qadimgi ingliz tilidagi harakat fe'llarining leksik-semantik guruhlari doirasida "gan" - "bormoq" fe'li "makonda joylashish" tushunchasi ifodasi bilan bog'liq ma'nolardagina ishtirok etishi mumkin, bu uning ma'no hajmining sezilmas qismini tashkil qiladi. Ushbu so'zning qolgan barcha ma'nolari tadqiqot doirasidan tashqarida qoladi. Bunda asosiy vazifa lug'atning tizimiy tahlilidan voz kechmasdan turib, semantik jihatdan qiyin leksik birliklar mohiyati hajmini yoritish uchun vosita sifatida xususiy lug'aviy tizimni ostini tasvirlashdan foydalanishga to'g'ri keladi.

To be fe'lining qadimgi ingliz tilidagi *beon/wesan* shakli faqat statik ekzistensiallikni ifodalagan. Ular boshqa fe'llardan o'z o'zagini o'zgartirishi – supletiv yo'l orqali yangi shakllar yasashi bilan farq qilgan. *Beon/wesan* formalarini *be-*, *wes-*, *es-* o'zaklaridan yasagan. Hozirgi zamon: aniqlik mayli, birlik I shaxs – *éom*, *běo*, II shaxs – *eart*, *bist*, III shaxs – *is*, *biP*; shart mayli – *sie*, *si*, *beo*, *sý*; istak mayli – *wes*, *běo*. Bu fe'lning ko'plik shakli quyidagicha: aniqlik mayli – *sint*, *běoP*, *sind (on)*; shart mayli – *sīen*, *sīn*, *bēon*, *sýn*; istak mayli – *wesaP*, *beoP* [2;126].

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

1. *Þū wære hēr, nære min brōþor dēad (Beowulf, p.126)*- Sen shu erda boʻlganingda, akam oʻlmagan boʻlardi;

2. *him wæs lēofre* - unga yaxshi boʻlar edi;

3. *hī bēoþ gefrēfrede* - ular tinchlantiriladi;

Oʻtgan zamonda bu fe'llar wæs, wære shaklini oladi.

Wæs- shakli birlik I, III shaxslar;

wære - birlik II shaxs va koʻplikdagi barcha shaxslar uchun amal qilgan. Fe'lining shaxssiz shakllari: *wesan, bēon, wesende, bēonde*. Bu fe'l shakllari boʻlishsiz forma yasashda “ne” yuklamasi bilan quyidagi shakllarni hosil qilgan *ne is > nis, wæs > næs, newéron, néron*. [2;126].

1. *...þa wæs sundliden (Beowulf, p.120)* – Oʻsha dengizchi edi. Bu gapda wæs – beon fe'lining III shaxs shaklida boʻlib, oʻtgan zamonda ishlatilgan.

2. *Wæs sē, ren þrēat? (Beowulf, p.186)* – U zirhli qoʻshinmi?

Bu gapda wæs – beon fe'lining III shaxs birlik shakli bilan oʻtgan zamonda soʻroq formasini yasash uchun ishlatilgan.

Bu gaplarda wæs – boʻldi, edi degan ma'noni anglatib, ma'lum bir holatni ifodalamoqda, bu fe'l oʻzbek tiliga tarjima qilinganda, “boʻldi”, “edi” deb tarjima qilinmaydi.

Ingliz tili grammatik strukturasi analitik shakllarning paydo boʻlishi bilan qadimgi ingliz tilidagi mavjudlikni ifodalovchi beon/wesan fe'li oʻrta asrga kelib uning mavhumroq jihatlarini bildirib boshladi. Bu fe'l hozirgi zamon aniqlik mayli, birlikda *I shaxs – am, II shaxs – art, III shaxs – is*, shart mayli barcha shaxslar uchun – *bē*, buyruq mayli – *bēn*; koʻplikdagi shaxslarning barchasi uchun – *bēn* shaklga ega. [2;240].

1. *Soothy, swich multitude is not honeste (Chaucer G.,p. 148)* - Haqiqatdan ham bunaqa koʻpchilik odil boʻla olmaydi

2. *Is his eafora nū heard hēr cumen(Chaucer G.,p. 28)* - uning oʻgʻli qahramon boʻlib qaytdi.

Bu fe'l oʻtgan zamonda aniqlik mayli birlik I shaxs, III shaxs uchun –*was*. II shaxs birlik va koʻplikda – *wēren* formasiga ega. Boʻlishsiz formada – “ne” yuklamasi bilan quyidagi shakllarni hosil qilgan: *ne am > nam, ne is > nis, ne was > nas, ne wēre > nēre* [2;240].

1. *At nyght were come info that hostelrye (Chaucer G.,p.104.)* – Karvonsaroyga qorongʻi tushdi.

2. *The chaumbres and the stables weren wyde (Chaucer G.,p.44.)* – Yotoqxonalar va otxonalar keng edi.

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Haqiqatan ham, ma'no bildiruvchi beon/wesan fe'li vaqtning tahliliy shaklini hosil qilishda ishtirok etganda, bu dalil ortiqcha isbotni talab qilmaydi va u rasmiy vazifani bajaradi, ya'ni u leksik-semantik nuqtai nazardan kelib chiqib, nolga teng keladi.

1. *The knight was glad, and no ferly, and so were al that cumpanye. (Chaucer G., p.244)* - Risar mamnun edi va qo'shinining barchasi mamnun ekanligini xayratlanarli joyi yo'k edi.

2. *His dugethe weoron blithe. (Chaucer G.,p.31)* - Uning qo'shini xushchaqchaq edi.

Ma'no bildiruvchi fe'l vazifalarining an'anaviy tasnifida unchalik aniq bo'lmagan bir jihat mavjud. Ko'pincha ikki xil farq aralashib ketadi: bir tomondan, beon/wesan fe'lining mustaqil (mutloq) va bog'lovchi ifodasi orasidagi sintaktik farq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, shu fe'lning "mavjudlik", "bor bo'lmoq" ma'nosi bilan va ma'nolarning to'liq yo'qligi orasidagi sof semantik farq nazarda tutiladi. [6;89]. Sintaktik va semantik ta'rifning bunday bog'lanishi qanday holatda oqlanishi mumkin. Birinchidan, agar ushbu fe'lning mutloq qo'llanilishi doim ekzistensial yoki ushbu mohiyatga yaqinlikka ega bo'lsa, ikkinchidan esa, beon/wesan fe'lining bog'lovchi sifatida qo'llanilishi unda qandaydir leksik mohiyatning yo'qligi bilan bog'lanishi shart, ya'ni u ega va kesimli bo'lakni bog'lashning faqat rasmiy vositasi bo'lib xizmat qilsagina oqlanishi mumkin.

1. *That folc stod al in gret wonder: and weren in grete doute, and bispeken to othur (Chaucer G., p. 47)* - U xalq (to'da, olamon) qo'rqinch va hayratda bir biriga murojaat qilib turardi.

2. *For he was Epicurus owene son (Chaucer G., p. 221)* - U Epikurning o'g'li edi.

Xulosa. Demak, ekzistensial mohiyat qadimgi va o'rta davr ingliz tilida beon/wesan fe'lining mustaqil ma'no anglatgan shakli va "there is", "there are" konstruksiyasi bilan ifodalangan, u o'zining mustaqil ma'nosini o'rta asrga kelib yo'qota boshlagan.

ADABIYOTLAR

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974.
2. Лыш Б.А. История английского языка. - 4-е изд., перераб. и доп. – М., 2010
3. Ерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.1974.
4. Супова, Ш. Б. (2017). О СЕМАНТИКЕ ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫХ КАТЕГОРИЙ

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Научное знание современности, (2), 350-353.

5.

usupova, S. B. (2023). VERBAL CONSTRUCTIONS IN PRESENT TENSE ENGLISH. Builders Of The Future, 1(01), 1-3.

6.

isa H., George W. A history of English. – Berlin: Language Science press, 2022.

7.

Beowulf: An Anglo-Saxon Epic Poem. – USA, 2023

8. Chaucer G. The Canterbury Tales. – Oxford University Press, 1992

